



# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## FARG'ONA VILOYATIDA QURILISH ISHLARI



2023- yil yanvar

## 2023- yil yanvar oyi uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar oyida, Farg'ona viloyatida jami 344,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 69,2 %ni tashkil etdi.




### **Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da**

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu — o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 106,6 % oshgan (233 birlik).




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,3 foizga oshgan (105 birlik);

Fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,4 foizga oshgan (122 birlik);


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 31,9 foiz ulushni va 100,5 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi (6 birlik).



**Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan  
shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar  
to'g'risida ma'lumotlar, birlik**


	holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.02.2022- y.	01.02.2023- y.	
Farg'ona viloyati	3 555	3788	106,6
Farg'ona sh.	965	1030	106,7
Qo'qon sh.	345	347	100,6
Quvasoy sh.	130	135	103,8
Marg'ilon sh.	332	304	91,6
Oltiariq	119	145	121,8
Qo'shtepa	102	117	114,7
Bag'dod	158	167	105,7
Buvayda	137	132	96,4
Beshariq	93	98	105,4
Quva	143	156	109,1
Uchko'prik	198	206	104,0
Rishton	88	100	113,6
So'x	78	80	102,6
Toshloq	132	144	109,1
O'zbekiston	97	136	140,2
Farg'ona	122	143	117,2
Dang'ara	138	151	109,4
Furqat	82	90	109,8
Yozyovon	96	107	111,5

**2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra  
Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish  
korxonalarini ulushi, %da**



Joriy yilning yanvar oyiga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 35,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 89,4 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkich darjasidan 2,2 % punktga ko'payib, 10,3 %ni tashkil etdi.

**2023- yil yanvar  
oyiga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan  
bajarilgan qurilish ishlari**



***Maʼlumot uchun:*** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Margʼilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 60,4 %i yoki 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 66,9 % oʼsish surʼati), Fargʼona shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 30,9 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 343,4 % oʼsish surʼati) va Beshariq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 3,0 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 49,5 % oʼsish surʼati)ga toʼgʼri keldi.



## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2023- yilning yanvar oyiga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 58,3 %i to‘g‘ri kelib, 2022- yilning yanvar oyiga ko‘rsatkichiga nisbatan 9,3 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 60,6 %ni tashkil etgan holda 200,8 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da

67,6  
2022- yil  
yanvar

58,3  
2023- yil  
yanvar



*Ma’lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Farg‘ona shahri (82,4 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 86,7 %), Bag‘dod tumani (33,1 mlrd. so‘m yoki 64,5 %), Qo‘qon shahri (27,2 mlrd. so‘m yoki 86,8 %) va Qo‘shtepa tumani (10,6 mlrd. so‘m yoki 51,7 %) to‘g‘ri keldi.*


## Qurilish ishlaringning umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 31,4 %ni tashkil etdi yoki 108,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 86,4 %ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 12,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 331,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,6 % va 96,4 %ni tashkil etdi.



2023- yil yanvar oyidagi  
Farg'on'a viloyatida qurilish ishlari

**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta  
qurollantirish ishlari ulushi**

**2023- yil yanvar oyida**

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning 72,7 %i yoki 250,3 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 23,5 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,4 %ni tashkil etdi.




Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 97,7 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 39,1 %ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar oyida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta qurollantirish (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati	344,5	69,2	250,3
Farg'ona sh.	116,2	94,6	92,5
Qo'qon sh.	34,6	87,5	16,7
Quvasoy sh.	11,0	92,7	5,2
Marg'ilon sh.	39,9	63,6	32,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	7,4	41,5	6,1
Qo'shtepa	15,9	57,6	9,9
Bag'dod	35,8	66,3	24,3
Buvayda	7,5	54,7	6,1
Beshariq	6,8	53,8	5,9
Quva	9,1	58,0	7,3
Uchko'prik	6,2	33,8	4,5
Rishton	5,7	70,1	2,8
So'x	2,6	37,2	1,7
Toshloq	11,9	74,8	6,6
O'zbekiston	8,2	63,6	7,1
Farg'ona	1,3	18,3	1,1
Dang'ara	7,5	31,9	6,1
Furqat	10,7	55,4	9,3
Yozyovon	6,2	74,2	4,3

## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 8,8 %ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan 0,5 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan 8,9 % punktga kamayib, 51,2 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2022- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan 9,4 % punktga ko'payib, 40,0 %ni tashkil etdi.

### Ulushi, %da



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 12,1 %ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 11,5 % punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 86,4 % (12,6 % punktga kamaydi ) hamda norasmiy sektoring ulushi 1,5 %ni tashkil etdi (1,1 % punktga ko'paydi).




### Ulushi, %da



Yirik qurilish tashkilotlari



2022- yil yanvar




Norasmiy sektor

2023- yil yanvar

## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 17,3 % punktga ko'paydi va 25,4 %ni tashkil etdi. Qolgan 74,6 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 17,3 % punktga kamaydi.



2023- yil yanvar oyidagi  
Farg'on viloyatida qurilish ishlari

## Qurilish ishlari hajmi yuqori shahar va tumanlar



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi  
Tel.: 73 241-98-42